

**O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Rassomlik mahorat ustaxonasi
(oliy rassomlik kursi)ga suhbat orqali o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-maydagi 304-son hamda “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzurida Rassomlik mahorat ustaxonasi (oliy rassomlik kursi) faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 15-dekabrda 786-son qarorlariga muvofiq O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Rassomlik mahorat ustaxonasi (oliy rassomlik kursi) (keyingi o‘rinlarda – Rassomlik mahorat ustaxonasi)ga suhbat orqali o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

stajyor-tadqiqotchi — ilmiy-ijodiy tashkilot yoki ta’lim muassasalariga stajyor-tadqiqotchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

talabgor – stajyor-tadqiqotchilikga o‘qishga kirish uchun hujjat taqdim etgan shaxs;

qabul komissiyasi – Rassomlik mahorat ustaxonasiga qabul va suhbat jarayonlarini o‘tkazadigan, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisining buyrug‘i bilan tashkil etiladigan komissiya;

direktorlar kengashi – Badiiy akademiya rahbariyati, boshqaruv xodimlari, Badiiy akademiya tizimiga kiruvchi tashkilotlar rahbarlaridan iborat tarkibda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan kollegial organ;

2. Rassomlik mahorat ustaxonasiga o‘qishga qabul qilish suhbat natijalariga ko‘ra reyting tizimi bo‘yicha to‘plangan ballar asosida amalga oshiriladi.

3. Talabgor uchun suhbat:

soha va ixtisoslik bo‘yicha badiiy salohiyati hamda mahorat darajasini;

O‘zbekiston tasviriy san’atidagi yo‘nalishlar va rassomlarning uslubiyatiga qiziqish doirasi va munosabatini;

jahon tasviriy san’atining yirik namoyonlatalari haqida bilishini;

umumiy dunyoqarashining shakllanganligi, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladi.

2-bob. Suhbat jarayonlarini o'tkazish

4. Stajyor-tadqiqotchilikda o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Qabul komissiyasi tomonidan ixtisoslik bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

Suhbat jarayoniga talabgorlar ijodiy ishlarining aslini o'zlari bilan birgalikda olib kiradilar.

5. Stajyor-tadqiqotchilikga kiruvchi talabgorlarning suhbat natijalaridan va ajratilgan qabul kvotasidan kelib chiqib, Qabul komissiyasi va (yoki) Direktorlar kengashi tomonidan 30-noyabrgacha bo'lgan muddatda qabul qilinganlardan tanlanadi.

Qabul komissiyasiga komissiyaning boshqa a'zolari faoliyatini o'zaro umumiy muvofiqlashtiruvchi rais boshchilik qiladi. Qabul komissiyasi faoliyatini tashkiliy ta'minlash uning kotibiga yuklanadi.

6. Suhbat jarayonlarini o'tkazish uchun bino va auditoriyalarni tayyorlashni tashkil etish uchun javobgarlik Qabul komissiyasi mas'ul kotibi zimmasiga yuklanadi.

7. O'qish uchun talabgorlarning suhbat jarayonlarini o'tkazish grafigi har yili 25-oktabrga qadar tasdiqlanadi hamda yagona elektron tizimga kiritiladi.

8. Suhbat jarayonlari o'zbek va rus tillarida o'tkaziladi. Suhbat tili talabgorning o'zi tomonidan belgilanib, uning o'qishga qabul qilish haqidagi arizasida ko'rsatiladi.

9. Talabgorlar suhbatdan o'tishlari uchun navbat bilan kiritiladi. Suhbatga talabgorlar biometrik pasporti (identifikatsiya ID-kartasi) bilan tashrif buyuradi.

10. Talabgorning suhbat jarayonlariga uyali telefon va boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, lug'at, kitob va shpargalkalar olib kirishi, ulardan foydalanishi yoki ularni boshqa talabgorga berishi, shuningdek, boshqa talabgorga yordam berishi qat'iy taqiqlanadi.

Ushbu talabni buzgan talabgorga Qabul komissiyasi kotibi tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi hamda suhbatdan chetlashtiriladi.

11. Suhbat jarayonlarini o'tkazish davomida Qabul komissiyasi a'zolari tomonidan talabgorga mazkur Nizomning 3-bandida ko'rsatilgan mezonlardan kelib chiqqan holda savollar beriladi.

Bitta talabgor bilan suhbat jarayoni 60 daqiqagacha davom etishi mumkin.

Suhbat natijalari 100 ballik tizimda ballar qo'yish yo'li bilan baholanadi. Mazkur Nizomning 3-bandida ko'rsatilgan har bir mezon bo'yicha maksimal ball 25 ballni tashkil etadi.

Cuhat natijalarini aniqlash uchun Qabul komissiyasining har bir a'zosi boshqa a'zolaridan mustaqil holda ushbu Nizomga ilovaga muvofiq shakldagi baholash varaqasini to'ldiradi va uni Qabul komissiyasi kotibiga taqdim etadi. Qabul komissiyasi kotibi talabgorga Qabul komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan o'rtacha ballni hisoblab chiqadi.

Suhbat natijalari reyting tizimi bo'yicha talabgorga qo'yilgan (0 dan 100 gacha oraliqdagi) ballar asosida aniqlanadi.

Qabul komissiyasi majlis bayonnomasida talabgorlar ro'yxati kamayib borish tartibida, eng yuqori ball olgan talabgordan boshlab joylashtiriladi.

12. Suhbat jarayoni va natijalari Qabul komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan va rais tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomada qayd etiladi.

13. Qabul komissiyasi stajyor-tadqiqotchilikda ta'lim oluvchi talabgorlar bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalarini majlis bayonnomasi rasmiylashtiradi va besh kun muddatda Direktorlar kengashiga tasdiqlash uchun kiritadi hamda kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

Suhbat jarayoni va natijalarini qayd etishda video va audioyozuvlardan foydalaniladi. Suhbat jarayoni Internet jahon axborot tarmog'i orqali onlayn rejimda translyatsiya qilinishi mumkin.

14. O'qish uchun talabgorlarning suhbat natijalari bir kun muddatda O'zbekiston Badiiy akademiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

15. Talabgorlar o'qishga quyidagi hollarda qabul qilinmaydi:
jadval bo'yicha suhbat jarayonlariga kelmaganda (0 ball qo'yiladi);
suhbatda belgilangan maksimal ballning 56 foizi va undan kam ball to'planganda.

16. Rassomlik mahorat ustaxonasiga talabgorlarni qabul qilish uchun suhbat jarayonlarini qayta o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

17. Suhbat natijalari yuzasidan O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisining buyrug'i bilan talabgorlar shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga tegishli ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislar kiritiladi.

Qabul komissiyasi tarkibiga kiritilgan shaxslarning apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

18. Suhbat natijalaridan norozi bo'lgan talabgor apellyatsiya komissiyasiga suhbat natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida yozma tartibda apellyatsiya berish huquqiga ega.

19. Apellyatsiya komissiyasi taqdim etilgan apellyatsiyani u kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kunidan oshmagan muddatda ko'rib chiqadi. Apellyatsiya ko'rib chiqiladigan kun haqida talabgorga xabar beriladi.

20. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan apellyatsiya shikoyati zaruratga ko'ra talabgor ishtirokida, suhbat jarayoni yozib olingan videotasvir asosida ko'rib chiqiladi.

21. Talabgorning e'tirozlarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha Apellyatsiya komissiyasi quyidagi mazmundagi qarorlardan birini qabul qiladi:

e'tiroz asossiz bo'lsa, apellyatsiyani qanoatlantirishni rad etish va suhbat natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

e'tiroz asosli bo'lsa, apellyatsiyani qanoatlantirish va suhbat natijalariga o'zgartirish kiritish.

22. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorlar qabul komissiyasiga o'qish boshlanishiga qadar hujjatlarning asl nusxasini taqdim etadi.

Hujjatlarda, shu jumladan elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlarda soxtalashtirish va qalbakilashtirish aniqlangan taqdirda, talabgor suhbatdan chetlashtiriladi (Stajyor-tadqiqotchilar safidan chetlashtiriladi), hujjatlari esa belgilangan tartibda huquqni muhofaza etuvchi organlarga yuboriladi.

23. O'qish uchun talabgorlarning suhbat natijalari har yili 25 noyabrga qadar Yagona elektron tizimga kiritiladi.

3-bob. Qabul qilishni rasmiylashtirish

24. Direktorlar kengashining o'qishga qabul qilinganlar to'g'risidagi qarori asosida Yagona elektron tizimdagi har bir talabgor bo'yicha ma'lumotlar har yili 2 dekabrga qadar to'ldiriladi.

25. O'qishga qabul qilganlar bo'yicha Direktorlar kengashi qarori va O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisining buyruq nusxasi har yili 5-dekabrga qadar Yagona elektron tizimga yuklanadi.

26. Stajyor-tadqiqotchilikda o'qishga qabul qilinganlar, ularning tasdiqlangan mavzulari, ilmiy rahbarlari yoki konsultantlari to'g'risidagi ma'lumotlar har yili 15-dekabrga qadar Yagona elektron tizimga yuklanadi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

27. Rassomlik mahorat ustaxonasiga qabul qilingan stajyor-tadqiqotchilarning suhbat natijalaridan tegishli ko'chirmalar ularning shaxsiy yig'majildiga tikib qo'yiladi.

28. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi
Rassomlik mahorat ustaxonasi (oliy rassomlik
kursi)ga suhbat orqali o'qishga qabul qilish
tartibi to'g'risida nizomga
ILOVA

**O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Rassomlik mahorat ustaxonasi
(oliy rassomlik kursi)ga qabul qilish bo'yicha suhbatdan o'tgan talabgorning
javoblarini
BAHOLASH VARAQASI**

Talabgorning FIO _____

T/r	Baholash mezonlari	Ballar
1.	Soha va ixtisoslik bo'yicha badiiy salohiyati hamda mahorat darajasi	
2.	O'zbekiston tasviriy san'atidagi yo'nalishlar va rassomlarning uslubiyatiga qiziqish doirasi va munosabati	
3.	Jahon tasviriy san'atining yirik namoyonlatalari haqida bilishi	
4.	Umumiy dunyoqarashining shakllanganligi, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyati	
Jami ball:		

Izoh: _____

Qabul komissiyasi raisi: _____

Qabul komissiyasi a'zolari: _____

Sana: _____